

11 fevral kuni fakultetlararo futbol musobaqasi tashkil etildi. Musobaqada har bir fakultetdan bittidan jamoa, "Dasturiy injiniring" fakultetidan esa 4 ta jamoa ishtirok etdi. Musobaqa juda ham qiziqarli va taassurotlarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Musobaqa natijalariga ko'ra, "Televizion texnologiyalari" fakulteti - uchinchi, AKT sohasida "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti - ikkinchi va faxrli birinchi o'rinni - "Dasturiy injiniring" fakulteti qo'lga kiritdi. G'oliblar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Ushbu musobaqani tashkillashtirishda yaqindan yordam bergan faol yoshlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.